O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SAMARQAND VILOYATI
BOSHQARMASI

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel/Faks: 71-203-11-04, E-mail: sam.expert@bk.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Izzatullayev Bexruzjon Xxx
Sana: 12-01-2026 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

271581 - SONLI

Obyekt nomi: “Samarqand viloyati Samarqand tumani Parrandachilik MFYda ko’p qavatli turar joy binolarini qurish”.	
Buyurtmachi:	SUFAT I D MCHJ
Bosh loyihachi:	"SAFO LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	"SUFAT I D" MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	101367

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Samarqand tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 23.09.2025 yildagi 213937800-sonli ruxsatnomasi.
1.2. "Arxitektura-shaharsozlik kengashi" ning 08.05.2023 yildagi 18-sonli yig‘ilish Bayoni.
1.3. 06.10.2025 yildagi 1718-1718233-241380-son ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH TOPSHIRIG‘I.
1.4. Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 28.10.2025 yildagi 224073695-sonli xulosasi.
1.5. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand hududiy filialining 17.06.2025 yildagi 1823459509-sonli texnik sharti.
1.6. “Samarqand suv ta`minoti” AJning 18.07.2023 yildagi №596-sonli texnik sharti.
1.7. “Samarqand suv ta`minoti” AJning 04.08.2025 yildagi №01/06-432-sonli texnik sharti.
1.8. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Samarqand viloyati filialining ijobiy xulosasi.
1.9. Buyurtmachi tomonidan 03.11.2025 yilda tasdiqlangan loyiha topshirig’i.
1.10. "O`ZGASHKLITI" MChJ Samarqand viloyati filialining muhandislik-geologik sharoitlar bo'yicha hisoboti.
1.11. Buyurtmachi "SUFATID" MCHJning 09.01.2026 yildagi №3-sonli O`zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli qarori talablarini bajarilishi bo`yicha kafolat xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Kitob 1 - Umumiy tushuntirish xati.
2.2. Kitob 2 - Smeta.
2.3. Kitob 3 – POS.
2.4. Albom 1 - Bo‘lim: BR.
2.5. Albom 2 – Blok - 1. Bo‘lim: AY,TX.
2.6. Albom 3 – Blok - 2. Bo‘lim: AY,TX.
2.7. Albom 4 – Blok - 1. Bo‘lim: ISHT va SK.
2.8. Albom 5 – Blok - 2. Bo‘lim: ISHT va SK.
2.9. Albom 6 – Blok - 1. Bo‘lim: TIT va KASh.
2.10. Albom 7 – Blok - 2. Bo‘lim: TIT va KASh.
2.11. Albom 8 – Blok – 1 va 2. Bo‘lim: NBSh.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Bosh reja:

Bosh rejada qurilish uchun tanlangan yer maydoni Samarqand tuman “Parrandachilik” mahallasi Moxir ko’chasi 166-manzilda joylashgan bo’lib, qo`yidagi tomonlar bilan chegaralangan:
Shimoldan – bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan
Sharqdan – bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan
G`arbdan – mahalliy yo’l va mavjud aholi turar-joy binolari bilan chegaralangan
Janubdan – mahalliy yo’l va mavjud binolar bilan chegaralangan.
Bosh reja bo`yicha, qurilish uchun ajratilgan maydonda 2 dona (Blok 1, Blok 2) 9-qavatli ko’p xonadonli turar joy binolari, bolalar o`yin maydonchasi, chiqindi yig`ish maydoni va avtomobillar saqlash maydonchasi qurililishi ko’zda tutilgan.
Hudud balansi:
Umumiy yer maydoni – 62328,8 m2.
Ajratilgan yer maydoni – 1245,0 m2.
Qurilish osti maydoni – 1058,1 m2.
Bolalar o'yin maydonchasi – 163,8 m2.
Yer qoplamalari maydoni – 26162,3 m2.
Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish – 12496,6 m2.

3.2. Arxitektura va rejalashtirish yechimi:

Blok 1 – ko’p xonadonli 9 qavat va yerto’ladan tashkil topgan, ikki yo`lakli turar-joy binosi rejasi bo`yicha to`g`ri turtburchak shaklda bo`lib, o`qlari bo`yicha o`lchami 42,0 x 15,6 metrni tashkil etadi. Binoning poydevori balandligi yer yuzasidan h=0,9 metrni tashkil qiladi. Yerto`la qavatining balandligi pol yuzasidan shiftigacha h=3,0 metrni tashkil etadi. Binoning qavatlari ichki xonalari balandligi pol yuzasidan shiftigacha h=3,0 metrni tashkil qiladi. Binoning yer to`la qismi ichki xonalari lift shaxtasi va avtoturargohdan iborat. Binoning qolgan qavatlarida 6 donadan har xil tipdagi 2 va 3-xonali xonadonlar, ichki yo`lak, zinapoya kataklari va lift shaxtasi joylashgan. Binoning har bir qavatida xonadonlar uchun tashqi balkon hisobga olingan. Xonadonlarning ichki xonalari kirish tamburi, umumiy xona, yotoqxona, oshxona, hojatxona va vannaxonalar birgalikda joylashgan. Jami xonadonlar soni – 54 dona. Shundan: 2-xonali xonadon - 36 dona, 3-xonali xonadon - 18 dona.
Blok 1 binoning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni – 729,3 m2.
Umumiy maydoni – 5160,0 m2.
Qurilish hajmi – 22379,9 m3.
Blok 2 – ko’p xonadonli 9 qavat va yerto’ladan tashkil topgan, bir yo`lakli turar-joy binosi rejasi bo`yicha to`g`ri turtburchak shaklda bo`lib, o`qlari bo`yicha o`lchami 21,0 x 15,6 metrni tashkil etadi. Binoning poydevori balandligi yer yuzasidan h=0,9 metrni tashkil qiladi. Yerto`la qavatining balandligi pol yuzasidan shiftigacha h=3,0 metrni tashkil etadi. Binoning qavatlari ichki xonalari balandligi pol yuzasidan shiftigacha h=3,0 metrni tashkil qiladi. Binoning yer to`la qismi ichki xonalari lift shaxtasi va avtoturargohdan iborat. Binoning 1-qavatidan 9- qavatigacha bo`lgan har bir qavatida 3 donadan har xil tipdagi 2 va 3-xonali xonadonlar, ichki yo`lak, zinapoya kataklari va lift shaxtasi joylashgan. Binoning har bir qavatida xonadonlar uchun tashqi balkon hisobga olingan. Xonadonlarning ichki xonalari kirish tamburi, umumiy xona, yotoqxona, oshxona, hojatxona va vannaxonalar birgalikda joylashgan. Jami xonadonlar soni – 27 dona. Shundan: 2-xonali xonadon - 18 dona, 3-xonali xonadon - 9 dona.
Blok 2 binoning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 328,8 m2.
Umumiy maydoni – 2542,8 m2.
Qurilish hajmi – 11047,6 m3.
Tashqi devor qoplamasi - oddiy shkaturka sement qum qorishmali, issiqlik izolyatsiyasi, devorlari "Keramogranit" plitkalari bilan qoplangan.
Zamin - "Keramogranit" plitkalari bilan qoplangan.
Kirish zinalari - "Keramogranit" plitkalari bilan qoplangan.
Eshik romlari - "Alyumin" va "MDF" dan.
Deraza romlari - "PVX"dan.
Pollar - zinapoyalarda marmar qoplamasidan, podyezd koridorlarda plitkalar, hojatxona va vanna xonalar keramik plitka qoplamasidan, mehmonxona, yotoqxonalarda, oshxona va yo’laklarda pol laminat qoplamasidan.

3.3. Qurilish uchastkasining xususiyatlari.

Iqlim zonasi - 2.
Tashqi harorat t-13 daraja.
Me'yoriy shamol yuki 0,38 kPa.
Me'yoriy qor yuki - 0,5 kPa.
Seysmiklik 8 ball.
2 turdagi cho’kma tuproqlar.

3.4. Tuzilmalarning xususiyatlari.

Asos – tuproq yostig’i H=2600mm.
Poydevor – quyma temir-beton plita h=90sm, beton sinfi M B20.
Prefabrik bloklardan yasalgan podval devorlari
Devor –Gazoblokdan devorlari M50 qorishmasida kompleks tuzilishga ega,
O’zaklar – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B15.
Rama – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B20
Diafragma – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B20.
Lift shaxtasi – yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B15.
Orayopma – zavodda tayorlangan yig'ma temir-beton plitalar.
Zinapoya – monolit temir-beton, beton sinfi M B15

Yopma – zavodda tayorlangan yig'ma temir-beton plitalar.
Tom – Shamollatiladigan
Konstruktiv yechim. binosi o'lchamlari o'qlarda
Blok1 42,0x15,8м
Blok2 21,0x15,8м
To'ldiruvchili rama-bog'lamli karkas konstruktiv tizim qabul qilingan bo'lib, g'isht bilan to'ldirilgan ustunlar orasidagi devor karkas ishida ishtirok etmagan.
Qurilishni tashkil etish. (POS).
Qurilishni tashkil etish loyihasi amalga oshirildi.
Qurilish bosh rejasi ishlab chiqilgan.
Qurilish xavfsizligi ko'rsatilgan.
Asosiy qurilish ishlab chiqarish usullari, o'rnatish ishlari ko’rsatilgan.
Qurilishning davomiyligi 31.3 oy.

3.5. NBSH qismi.

Loyihada Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-iyuldagi PQ–266-son Qaroriga muvofiq:
- Avtoturargoh hududida nogironligi bo`lgan shaxslar uchun alohida joylar ko`rsatilgan.
- 1-2-bloklarga asosiy kirish qismida zina va nogironligi bo’lgan shaxslar uchun pandus hisobga olingan va chiqib tushish uchun 2 tomonlama tutqichlar o`rnatilgan.
- Yo‘laklar ko‘zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi ko`zda tutilgan.
- Kirish eshiklari perimetri bo’ylab eni 100 mm bo’lgan kontrast rang bilan ajratib bo’yash ko’zda tutilgan.
- 1-2-bloklarda o`rindiqli aravachada harakatlanuvchilar uchun birinchi qavat pol sathiga erkin chiqib tushishiga zinapoyalarda maxsus ko’taruvchi moslama jihozlanishi ko'zda tutilgan.

3.6. Energiya (tejamkorlik) samaradorlik.

Loyiha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9 sentabrdagi PF-220 sonli farmon va 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son qarori, O’zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 31.03.2017 – yildagi bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Vazirligining 2024-yil 30-noyabr 270-son buyrug'iga ilova asosida va QMQ 2.01.04-18, ShNQ 2.01.04-18, QMQ 2.01.01-22 ga asosan energiya tejamkorlik bo'yicha quyidagi ishlar qo'llanilgan.
1. Tomda issiqlik saqlash qatlami uchun Izolyatsiya - “ПЕНОПОЛИСТРОЛ” (γ=35 kg/m^3), qalinligi 90 mm qatlami solingan.
2. Romlar (eshik va deraza) plastikli 1 kamerali steklopaket (ikki oyna), yon oynalarni devor bilan tirqishi qurilish penasi bilan to'ldirilgan.
3. Binoning sokoldan yuqori qismi tashqi devorlari gazablok (400mm) 40 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=120 kg/m^3) bilan qoplangan; binoni sokol qismida 30 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi “ПЕНОПЛЕКС” (γ=28 kg/m^3) berilgan.
4. Binoning birinchi qavati pollari ostiga issiqlik izolyatsiyasi uchun qalinligi 50mm bo'lgan 1 qatlam “ПЕНОПОЛИСТРОЛ” (γ=28 kg/m^3) solingan.
5. Elektr simlari va jixozlari O’zbekiston Respublikasi 2011-yildagi Elektr-uskunalarni o'rnatish qoidalari (EO'Q) va QMQ 3.05.06-97, QMQ 2.04.17-19 va ShNQ 2.08.01-05 yildagi meyorlarga asosan bajarilgan. Elektr energiyasini tejash maqsadida loyiha ishlarida quyosh panellari o’rnatish qabul qilingan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy

energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat datchiklari kuzda tutilgan.
6. Issiq suv ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2019 yildagi PQ-4422 sonli qaroriga muvofiq, energiya samaradorligini oshirish maqsadida issiq suv ta'minoti uchun sertifikatlangan quyosh suv isitkich qurilmalaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

3.7. Yong‘in xavfsizligi qismi.

Loyiha bilan 2 ta blokdan iborat 9 qavatli turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Yerto‘la qavati lift qurilmalari ro‘parasida tambur-shlyuz, yerto‘la qavatida avtoturargoh va texnik xonalar, (avtoturargohning bevosita ustki qavatida birinchi qavat bilan oralig‘ida texnik qavat tashkil etildi), 1-9 qavatlarida yashash kvartiralari joylashtirilishi rejalashtirilgan. Yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish uchun chuqurchalar bilan ta’minlangan derazalar. Tom qismi – yassi. Tom qismiga chiqish ichki umumiy zinapoya orqali. Isitish tizimi – mahalliy. Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binolarning olovbardoshlik darajasi – II, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3, Turar joy binolarining balandligi +27,8 m (yer sathidan eng yuqori qavatining ochiladigan eshigi pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Binolar devorlarning tashqi fasad qismiga yonmaydigan materiallardan ishlov berish, har bir kvartiradan ochiq turdagi (chiqish joyi, chetidan (tores) derazagacha eniga 1,2 metrdan kam bo‘lmagan yopiq devor bilan ta’minlangan) balkonlar, balkonlarda avariya lyuk va zinalari, tom qismida tutqichlar, yerto‘la qavati avtoturargohi va yer usti qavatlarida yong‘in vaqtida tutun tortish tizimi, avtoturargoh qavati barcha himoya qilinuvchi zonalari hamda yer usti qavatlar kvartiralarning yo‘lak va oshxonalarida yong‘in signalizatsiya tizimi manzilli habarlagichlari, odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (ovozli va yorug‘lik) boshqarish tizimi, yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yong‘in signalizatsiya tizimi nurlarini himoya qiluvchi qurilmasi qorovulxonaga o‘rnatilishi, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun hududda suv minorasi va yong‘in o‘chirish gidranti, yong‘in-qutqaruv avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali aylanma yo‘l, avtoturargoh va yer usti qavatlarida kranlar bilan ta’minlangan ichki yong‘in o‘chirish suv tizimi, bosim ko‘taruvchi nasos qurilmalari, yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimining ichki tarmoqlari binodan tashqarida boshqariladigan surma zulfin (zadvijka) va teskari klapanli diametri 80 mm bo‘lgan to‘rtta tashqariga chiqarilgan o‘t o‘chirish avtomashinalarining shlanglarini ulash qismlari (yong‘in patrubkasi), avtoturargohda avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi.

3.8. Smeta qismi:

Ishlarning qiymatini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida" 2003-yil 11-iyundagi 261-son qaroriga muvofiq resurs usulida amalga oshiriladi, "O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida" 2004-yil 12- maydagi 226-son va SHNQ 4.01.16-09 ga muvofiq shartnomaviy joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalari. Ob'ektning joriy narxlardagi qiymati "O'zbekiston Respublikasi qurilish ishlab chiqarishida foydalaniladigan moddiy-texnika resurslarining joriy narxlari katalogi", ishlab chiqaruvchilarning ulgurji narxlari 2025 yil 1-chorak uchun birjalardagi narxlar va Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda resurs usuli bo'yicha hisob-kitob hujjatlari asosida aniqlanadi (qurilish mashinalari va mexanizmlari, moddiy resurslar va asbobuskunalar, narxlarini kelishish protokoli Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari A.G.Shukurov tomonidan tasdiqlangan).

Mehnat xarajatlari (1 kishi/soat uchun) bosh buyurtmachi tomonidan tasdiqlanib taqdim

qilingan kelishilgan narxlar dalolatnomasiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-choraklik bilan bo‘lgan davrda “ Qurilish” tarmog‘ida o‘rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalarni hisobga olgan holda 29206,81 so‘m qabul qilindi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Isitish va shamollatish.

Blok №1, Blok №2.

Loyihaviy yechimlarning qisqacha tavsifi:

Isitish tizimi. Isitish va shamollatish tizimi loyihasi arxitektura topshirig'i va ShNQ 2.04.05-22 "Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash"ga muvofiq ishlab chiqilgan. Issiqlik ta'minoti manbaihududda joylashgan modulli isitish qozonlari. Isitish moslamasi sifatida alyumin radiatorlar H=500mm tanlangan. Har bir radiator uchun issiqlikni nazorat qiluvchi 25x1/2" (терморегулятор) o'rnatiladi. Quvurlar alyuminiy bilan mustahkamlangan polipropilen (PN=25) (PP-FAIBER) yoki shunga o'xshash sifatli mahsulotlardan foydalaniladi.

Shamollatish. Binoning shamollatish tizimi mexanik yo'l bilan ta'minlanishi loyihalangan. Barcha xonalarga havo oqimi derazalar va eshiklar orqali hamda vent kanallar orqali kiradi. Xojatxona va yuvinish xonalar uchun mexanik alohida shamollatish tizimi loyihalangan.

4.2. Ichki va tashqi suv, oqova suv ta`minoti.

Bino ichki suv va oqava suv ta`minoti (BK):

Maishiy va ichimlik suvi ta'minoti - B1: Loyihada ichimlik suvi ta’minoti uchun 2 ta kirish (vvod) ko‘zda tutilgan. Tarmoqdagi kafolatlangan bosim uzluksiz va normal suv ta’minoti uchun yetarli emas. Podval xonasida xo‘jalik-maishiy ehtiyojlar uchun nasoslar bilan jihozlangan bosim oshiruvchi nasos stansiyasi loyihalangan. Suv ta'minoti tarmoqlari GOST 52134-2003 bo'yicha PPR PN-20 Ø90-20mm polipropilen quvurlardan foydalanilgan. Bundan tashqari binoning yerto'la qismida metal quvurlardan foydalanilgan. Bino yerto'lasidagi barcha quvurlar izolyatsiya qilinadi

Issiq suv ta'minoti - T3: Har bir xonadon uchun elektrli suv isitgichi o'rnatish ko'zda tutilgan va shu bilan birgalikda quyoshli suv isitgich kollektori (HWH-35-300) o'rnatiladi. Quyosh suv isitgichi binoning tomiga quyosh chiqishi va botishiga qarab o'rnatiladi va issiq suv iste'molchilarga elektr suv isitgichlari orqali etkazib beriladi. Tarmoqlar GOST 52134-2003 bo'yicha polipropilen quvurlardan tayyorlanadi.

Oqava suv tarmog'i - K1: Santexnika moslamalaridan maishiy va chiqindi suvlari o'zi oqar quvur orqali mavjud tarmoqqa chiqariladi. Ichki tarmoqlar GOST 22689-89 bo'yicha Ø100-Ø50mm plastik kanalizatsiya quvurlaridan tayyorlanadi. Gorizontal uchastkalar chiqishga qarab i=0,02 nishabnik bilan yotqiziladi. Shamollatish stoyaklari tomyopmadan 0.5m baland chiqib turishi kerak. Tarmoqning tiqilishini bartaraf etish uchun quvurlarga tozalash va qayta ko'rib chiqishni ta'minlash kerak.

Tashqi suv ta`minoti va oqava suv tizimi (HBK):

Tashqi tarmoqlar (HBK) loyiha topshirg’iga va “SUFAT ID” MCHJ direktori tomonidan berilgan №1 sonli kafolat xatiga asosan ikkinchi bosqichda bajariladi. Tashqi ta`minot loyihasi keyingi bosqichda ishlab chiqish sharti bilan xulosaga tavsiya qilinadi. Tashqi ta`minoti loyihasi keyingi bosqichda taqdim etilmasa, ushbu xulosa o`z kuchini yo`qotadi.

4.3. Gaz ta'minoti bo'limi. Ichki qurilmalar bo'limi (ГСВ).

Ishchi loyiha:

“Samarqand tumani «Parrandachilik» MFY hududida joylashgan ko‘p qavatli turarjoy binosini gaz bilan ta’minlash” loyihasi quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

Texnik shartlar: “Samarqand Hududgazta’minot” GTF tomonidan berilgan №028564-sonli, 18.06.2025-yildagi texnik shartlar. Gaz tarmog‘iga ulanish nuqtasi – mavjud yer osti gaz quvuridan, diametri DN-219, bosimi 120 mm suv ustuni bo‘lgan, amaldagi halqa avtomobil yo‘li oldida joylashgan quvurdan.Loyiha bo‘yicha quyidagi jihozlar o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan:– Gaz plitasi ПГ-4 – 54 dona. Soatlik gaz sarfi:Q = 60,48 nm³/soat.
Gaz sarfini hisobga olish uchun elektron gaz hisoblagich: “Osten G-2,5” – 54 dona. Har bir xonadonda gaz plitasi oldiga gaz sizib chiqishini aniqlovchi signalizator va unga ulangan himoya klapani o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan. Metall quvurlar va ularga o‘rnatiladigan jihozlar texnika xavfsizligi talablariga to‘liq mos bo‘lishi shart. Ichki gaz quvurlari GOST 3262-75* talablariga muvofiq po‘lat suv-gaz quvurlaridan, tashqi gaz quvurlari esa GOST 10704-91 talablariga asosan loyihalashtirilgan.Gaz quvurlarini devorga mahkamlash 5.905-18.05 seriyasiga muvofiq ilgaklar yordamida amalga oshiriladi. Mahkamlash oralig‘i:– dy=32 mm uchun – 3,5 m dan oshmasligi,– dy=25 mm uchun – 3,0 m,–dy=20 mm uchun – 2,5 m,– dy=15 mm uchun – 1,5 m dan oshmasligi lozim. Texnik buyumlar (burilishlar, o‘tish qismlari, futlyarlar) zavodda tayyorlangan bo‘lishi kerak. Gaz quvurlarini montaj qilish payvandlash yo‘li bilan bajariladi, gaz plitalari, armatura va hisoblagichlar ulanadigan joylar bundan mustasno.Yashirin ishlar (futlyarda yotqizilgan quvurlar) dalolatnoma tuzish orqali qabul qilinishi lozim. Devor ichidan o‘tkazilgan quvurlar ikki tomondan devor bilan tekis holatda bo‘lishi kerak. G’ilof ichidan o‘tkaziladigan quvurlar montajdan oldin bo‘yaladi. Quvur bilan futlyar orasidagi bo‘shliq bitum yoki moylangan kanop bilan to‘ldiriladi. Futlyar albastr, gips yoki sement bilan yopiladi. Futlyar ichidagi quvurlarda payvandlangan, rezbali yoki flanesli birikmalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Gaz quvurining kirish joylari binoning fasad qismidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri gazlashtiriladigan xonalarga (oshxonalarga) kiritiladi. Yopuvchi armatura konservatsiyadan chiqarilib, ko‘rikdan o‘tkazilishi shart. Quvur birikmalaridan, salnik va qistirma materiallaridan gaz sizib chiqishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Oshxonalarda ventilyatsiya tabiiy kirish-chiqish tizimida amalga oshiriladi. Havo chiqarish loyihada ko‘zda tutilgan ventkanallar orqali, toza havo kirishi esa fortochkalar orqali ta’minlanadi. Binoga gaz berishdan oldin ventkanallarda tortish kuchi mavjudligi tekshiriladi va tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Har bir xonadonda G-2,5 rusumli gaz hisoblagich o‘rnatiladi. Montaj ishlari gaz hisoblagichning yo‘riqnomasiga muvofiq bajariladi. Yer usti gaz quvurlari atmosfera ta’siridan himoyalash uchun 2 qatlam gruntovka va 2 qatlam emaldan iborat bo‘yoq qoplamasi bilan qoplanadi.
1 dona gaz plitasi uchun gaz sarfi – 1,12 m³/soat.
1 xonadon uchun hisobiy gaz sarfi – 1,12 m³/soat.
Turar-joy binosi bo‘yicha umumiy gaz sarfi – 60,48 nm³/soat.
Loyiha amaldagi “Gaz xo‘jaligida xavfsizlik qoidalari” va ShNK 2.04.08-22 talablariga muvofiq bajarilgan.
Блок 2
Gaz tarmog'iga ulanish nuqtasi - mavjud yer osti gaz quvuridan, diametri DN-219, bosimi 120 mm suv ustuni bo'lgan, amaldagi halqa avtomobil yo'li oldida joylashgan quvurdan.Loyiha bo'yicha quyidagi jihozlar o'rnatilishi ko'zda tutilgan:- Gaz plitasi ПГ-4 - 27 dona. Soatlik gaz sarfi:Q = 30,24 nm³/soat. Gaz sarfini hisobga olish uchun elektron gaz hisoblagich: “Osten G-2,5” - 54 dona. Har bir xonadonda gaz plitasi oldiga gaz sizib chiqishini aniqlovchi signalizator va unga ulangan himoya klapani o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Metall quvurlar va ularga o'rnatiladigan jihozlar texnika xavfsizligi talablariga to'liq mos bo'lishi shart. Ichki gaz quvurlari GOST 3262-75* talablariga muvofiq po'lat suv-gaz quvurlaridan, tashqi

gaz quvurlari esa GOST 10704-91 talablariga asosan loyihalashtirilgan.Gaz quvurlarini devorga mahkamlash 5.905-18.05 seriyasiga muvofiq ilgaklar yordamida amalga oshiriladi. Mahkamlash oralig'i:- dy=32 mm uchun - 3,5 m dan oshmasligi,- dy=25 mm uchun - 3,0 m,- dy=20 mm uchun - 2,5 m,- dy=15 mm uchun - 1,5 m dan oshmasligi lozim. Texnik buyumlar (burilishlar, o'tish qismlari, futlyarlar) zavodda tayyorlangan bo'lishi kerak. Gaz quvurlarini montaj qilish payvandlash yo'li bilan bajariladi, gaz plitalari, armatura va hisoblagichlar ulanadigan joylar bundan mustasno.Yashirin ishlar (futlyarda yotqizilgan quvurlar) dalolatnoma tuzish orqali qabul qilinishi lozim. Devor ichidan o'tkazilgan quvurlar ikki tomondan devor bilan tekis holatda bo'lishi kerak. G'ilof ichidan o'tkaziladigan quvurlar montajdan oldin bo'yaladi. Quvur bilan futlyar orasidagi bo'shliq bitum yoki moylangan kanop bilan to'ldiriladi. Futlyar albastr, gips yoki sement bilan yopiladi. Futlyar ichidagi quvurlarda payvandlangan, rezbali yoki flanesli birikmalar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Gaz quvurining kirish joylari binoning fasad qismidan to'g'ridan-to'g'ri gazlashtiriladigan xonalarga (oshxonalarga) kiritiladi. Yopuvchi armatura konservatsiyadan chiqarilib, ko'rikdan o'tkazilishi shart. Quvur birikmalaridan, salnik va qistirma materiallaridan gaz sizib chiqishiga yo'l qo'yilmaydi. Oshxonalarda ventilyatsiya tabiiy kirish-chiqish tizimida amalga oshiriladi. Havo chiqarish loyihada ko'zda tutilgan ventkanallar orqali, toza havo kirishi esa fortochkalar orqali ta'minlanadi. Binoga gaz berishdan oldin ventkanallarda tortish kuchi mavjudligi tekshiriladi va tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Har bir xonadonda G-2,5 rusumli gaz hisoblagich o'rnatiladi. Montaj ishlari gaz hisoblagichning yo'riqnomasiga muvofiq bajariladi. Yer usti gaz quvurlari atmosfera ta'siridan himoyalash uchun 2 qatlam gruntovka va 2 qatlam emaldan iborat bo'yoq qoplamasi bilan qoplanadi.

1 dona gaz plitasi uchun gaz sarfi - 1,12 m^3/soat.

1 xonadon uchun hisobiy gaz sarfi - 1,12 m^3/soat.

Turar-joy binosi bo'yicha umumiy gaz sarfi - 30,24 nm^3/soat.

Loyiha amaldagi “Gaz xo'jaligida xavfsizlik qoidalari” va ShNK 2.04.08-22 talablariga muvofiq bajarilgan.

4.4. Ichki elektr ta`minoti.

9-qavatli turar-joy binosining elektr ta`minoti Blok-1 va Blok-2.

Hisobiy quvvati – 159+79.5 kVt.

II toifali iste'molchi.

Asosoiy taqsimlash qurilmasi sifatida VRU1 – 21-10 tipidagi shitlar ishlatilgan. Elektr energiyasi hisoblagichlarimi urnatish uchun qavatlarda SHE va xonadonlarni taqsimlash qurilmasi SHK tipidagi shitlar ishlatilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat sensorlari ko`zda tutilgan. Kvartiralarda osma patronlar ko`rsatilgan. Yoritish tarmoqlari VVGng (3x1,5) mm2 kabeli bilan PVX quvurlarda tashlangan. Elektr tarmoqlari PVX quvurlarida turli kesimdagi VVGng kabeli bilan devor ichi bo`ylab yotqizilgan. Loyihada har bir binoning tom qismiga 111 dona quvvati 550 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatilishi va tarmoqqa 3 dona 20 kVt quvvatli invertorlar orqali ulanishi ko'rsatib o'tilgan Elektr energiyasini hisobga olish EX-518 hisoblagichi va kvartiralar uchun KAIFA MA110 hisoblagichi tomonidan ta'minlanadi. Zaminlash 50x50x5mm po'lat burchak va 40x4mm po'lat belbog'orqali amalga oshirilgan.

Yerosti avtoturargoh

Hisobiy quvvati – 81.5 kVt.

II toifali iste'molchi.

Asosoiy taqsimlash qurilmasi sifatida PR11 tipidagi shit ishlatilgan. Ob'ektning elektr yoritish

qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat sensorlari ko`zda tutilgan. Yoritish tarmoqlari VVGng (3x1,5) mm2 kabeli bilan PVX quvurlarda tashlangan. Elektr tarmoqlari PVX quvurlarida turli kesimdagi VVGng kabeli bilan devor ichi bo`ylab yotqizilgan. Zaminlash 50x50x5mm po'lat burchak va 40x4mm po'lat belbog'orqali amalga oshirilgan. Tashqi elektr ta`minoti loyihasi uchun 216136-sonli yig'ma ekspert xulosasi olingan.

4.5. Kuchsiz tok. (Blok 1;2)

Loyihada «GAMMA-512» ishlab chiqarilgan uskunalar asosida yong‘in signalizatsiyasi tizimi ko‘zda tutilgan. Manzilli tizimni uzatish "GAMMA-512 ППКОПУ" boshqaruv paneli yordamida yong'in signalizatsiya halqalarining holati to'g'risida xabarlarni yig'ish, qayta ishlash va ro'yxatga olishni ta'minlaydi. Yong'inni aniqlash uchun ДИП-А-212-3 tutun optik-elektron manzilli yong'in datchiklari, termal maksimal-differensial yong'in detektorlari va mumkin bo'lgan evakuatsiya yo'llarida qo'lda chaqiruv yong'in datchiklari ИПР(А)-513-4 manzil signallari o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Yo'laklarga va koridorlarga ovozli xabar berish “GAMMA-UOSZ” uskunalari orqali amalga oshiriladi.

• Manzilli aloqa liniyalari КСВВнг(А)-LS 2x2x0,8 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

• RS-485 interfeys liniyalari UTP 4x2x0,5 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

Ovozli xabar berish 360 Vt quvvatga ega ovoz kuchaytirgichdan hamda koridorlarda o'rnatilgan "Ovozli karnay" quvvati 5-10 Vt ega bo’lgan karnaylar orqali amalga oshiriladi. Ovozli eshittirish moslashuvchan stendidagi ish stoli mikrofoni orqali amalga oshiriladi. Yong’indan xabardor qilish tizimi КПСнг(А)-FRHF kabellari orqali amalga oshiriladi. Binoning xafsizligini ta’minlash maqsadida binoga ichki va tashqi videokuatuv kameralari o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Barcha videokuzatuv uskunalari binoning server xonasi va kuzatuv postida o’rnatilgan. Video monitoring tarmog'i gofrirovka qilingan quvurlardagi tunnelga yotqizilgan KSVPV 4x2x0.5 kabellari yordamida amalga oshiriladi. Loyihada xar-bir xonadonda domofon tizimi, internet-aloqa, televidenie tizimi tarmoqlari uchun texnik imkoniyatlar ko’zda tutilgan bo’lib domofon uskunasi, internet qurilmalari, televidenie rozetkalarini o’rnatish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha tasdiqlangan:

- Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 28.10.2025 yildagi 224073695-sonli xulosasi.

5.2. Loyiha kelishilgan:

- Samarqand viloyati bosh arxitektori bilan kelishilgan
- Samarqand tumani SEO va JSB bilan kelishilgan.
- Samarqand tumani FVV bo`limi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **33 522 350 064** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 411 152 319 so'mga kamaytirilib, **32 111 197 745** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **26 486 668 433** so'm

Asbob-uskunalar: **2 184 043 839** so'm

QQS: **3 440 485 473** so'm

6.1. Ekspertiza sharhlari va takliflariga binoan smeta hujjatlariga quyidagi tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- qabul qilingan standartlar ShNQ ga muvofiq tuzatildi;
- mashina soatlarining resurs ko'rsatkichlari, odamning ish haqi soatlari aniqlandi;
- qurilish materiallari va jihozlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi;
- materiallarni tashish xarajatlari aniqlandi;
- pudratchining boshqa xarajatlari aniqlandi.

Bundan tashqari:

Zilzilabardoshlikga karshi vibrodinamik tekshiruv ПК-161: 500 000 000 so'm (ekspertiza ko'rib chiqilmagan).

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-punktiga muvofiq va SHNQ 1.03.06-13 da «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir»

6.3. Qayd e'tiladiki, smeta bo'limi mutaxassisi loyihadagi va ekspert ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlaridagi ish hajmlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi.

6.4. Ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilgan birlamchi loyihaoldi va asoslovchi hujjatlarining SHNQ 1.03.06-13 va SHNQ 1.03.01-16 talablariga mos kelishi borasida berilgan kamchiliklarning bartaraf etilmaganligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga ekspertiza xulosalarida ko‘rsatilgan sharxlar bo‘yicha to‘g‘irlab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi. Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘g‘irlanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

6.5. Buyurtmachi va pudratchi tashkilot ijro hujjatlarini rasmiylashtirishda SHNQ 4.02.00-20 "Qurilish ishlariga resurs elementli smeta normalarini ishlab chiqish va tadbiq etish bo‘yicha umumiy nizom", 4-bo‘lim "Resurs elementli smeta normalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar", 4.1-bandiga asosan resurs elementli smeta normalari tarkibiga kiruvchi smeta normalaridagi materiallar sarfi ishlab chiqarish ishlari uchun buyurtma qilish va ularni hisobdan chiqarishga asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

6.6. Eslatma Buyurtmachiga:

- uskuna, mebel va inventar xarid qilishda buyurtmachi O'zbekiston Respublikasining 684-sonli 04/22/2021-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonuniga amal qilishi shart;
- asbob-uskunalar ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan;
- loyiha tashkiloti va buyurtmachi taqdim etilgan ish hajmlari, narxlar ro'yxati, tijorat takliflari va dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgardir (Vazirlar Mahkamasining 579-son qaroriga);
- bajarilgan ishlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarda belgilangan tartibda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishda pudratchining qurilish materiallari va asbob-uskunalari, mashinalari va mexanizmlari mehnat xarajatlari, pudratchining boshqa xarajatlari narxining haqiqiy xarajatlarini hisobga olinishini ta’minlash zarur;
- obyektning yakuniy qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalariga ko‘ra amalda bajarilgan ish hajmiga asosan aniqnadi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321 son qarorida);
- loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tashkilotining loyiha bo‘yicha e’tirozlarisiz ekspertiza ko‘rigiga topshirildi.

6.7. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

7.1. Ish loyihasi: "**Samarqand viloyati Samarqand tumani Parrandachilik MFYda ko’p qavatli turar joy binolarini qurish**" ekspert tekshiruvi natijalari va ushbu xulosaning 6.3-6.7

bandlaridagi fikrlarni hisobga olgan holda, keyingi ko'rib chiqish tavsiya etiladi va tasdiqlash.
7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-son, 4.01.16-09 SHNQga muvofiq qurilish qiymati tavsiyaviy tusga ega bo’lib Buyurtmachining bajarilgan ishlar uchun pudratchi bilan o'zaro hisob-kitob qilish uchun asos bo'la olmaydi. Buyurtmachi pudratchi bilan birgalikda nazorat o'lchovi natijalarini hisobga olgan holda belgilangan tartibda asoslovchi hujjatlarga asosan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi. Shartnoma narxi va bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha yakuniy qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

Bosh ekspert: Jumayev Akmal Ziyadovich.
Ishtirokchi ekspertlar: Vladikina Anna Vasilevna, Abdukarimov Baxodur Istamovich, O‘raqov Xumoyun Yusup O‘g‘li, Xashimov Ilxom Xamidovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Fuzaylov Ashraf Akramovich, Shamsiyev Ma’mur Maxmudovich, Abdiyev Mirzabek Sayitmuradovich, Karimov Nemat Xxx, Sharipov Alisher Abdusamiyevich, Rashidov Elyor Ismat O‘g‘li, Tuyg‘unov Kamol Komiljon O‘g‘li